

Xolov Olimjon Chorshamiyevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA MILLIY TARBIYA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining milliy tarbiyamizda qadrlangan fazilatlar haqidagi fikrlari keltirilgan va ularni mazmun mohiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: qadriyat, milliy tarbiya, odob-axloq, milliy fazilat.

НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ ВО ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье представлены мнения восточных мыслителей о качествах, ценных в нашем национальном образовании, и поясняется их содержание.

Ключевые слова: ценность, национальное образование, манеры, национальная добродетель.

NATIONAL UPBRINGING IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

Annotation. This article presents the opinions of Eastern thinkers on the qualities valued in our national education and explains their content.

Key words: value, national education, manners, national virtue.

Kirish. Tarbiya xulqni boshqaruvchi axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy-axloqiy dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va masuliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki tarbiya bola tug'ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, imoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqloq vazifalari bilan uyug'nlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar.

Bu borada tarixga nazar soladigan bo'lsak ko'plab yurtlardan etishib chiqqan mashhur olimlarning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari shu xalq uchun qolaversa, dunyo xalqlari uchun ma'naviy-axloqiy ozuqa bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki bu sohada markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy meroslari ham juda ahamiyatlidir.

Shunday ekan ushbu maqola mavzusidan kelib chiqqan holda mutafakkirlarimizning ma'naviy meroslaridagi tarbiyaviy jihatlar haqida qisqacha tarzda fikr yuritamiz.

Asosiy qism. Mutafakkirlarimizning ma'naviy merosida barkamol shaxsni tarbiyalash o'ziga xos o'rin tutib, yoshlar qalbida insoniy fazilatlarni yanada shakllantirishga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrlı bo'lgan allomalarimizdan Imom Al Buxoriy, Muhammad Iso At Termiziy, Axmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalarning ma'naviy-ma'rifat me'roslaridan keng foydalanish yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ulug' mutafakkirlar, olimu fuzalolar, aziz-avliyolar vatani bo'lmish O'zbekistonimizda keyingi vaqtlarda xalqimizning ezgulikka yo'g'rilgan an'analari, urf-odatlarini qayta tiklash hamda rivojlantirish, muqaddas qadamjolar va obidalarni obodonlashtirish, yosh avlodni boy tariximizga

hurmat, vatanparvarlik va odamiylik fazilatlarini ruhida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hеч shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi"—deb ta'kidlagan. Ushbu fikrlardan ko'rinadiki mutafakkirlarimizning ma'naviy merosidan keng foydalanish yoshlar tarbiyasida nechog'li yuqori ekanidan dalolat beradi. Chunki farzandlar bizning kelajagimiz, ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining qadriyatlar to'g'risidagi qarashlarini o'rganar ekanmiz, mutafakkirlar tamonidan millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar haqida hur fikrlar bayon etilganini anglab etdik. Shu o'rinda aytish kerakki mutafakkirlarimiz qarashlarida avvalo milliy tarbiya asosida bolani tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Mutafakkirlarimiz tamonidan ilgari surilgan tarbiyada milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, vatanparvarlik, do'stlik, odob-axloq, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik, adolatlilik, insof, botirlik, saxiylik, baxillik, kamtarlik, sabr-qanoat, muhabbat, or-nomus, samimiylik, andisha, farosat, isrof, me'yor, ma'suliyat, kattaga hurmat, namuna, urf-odat va an'analarga sodiqlik takror va takror qayd etilib ularning bari milliy qadriyatlar sifatida tarannum etiladi. Shu o'rinda bir qancha mutafakkirlarimizning ma'naviy me'roslariga misollar keltirib o'tamiz.

Abu Nasr Forobiyning: "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", — deganlar. Bu fikrlarida olam-olam ma'no bo'lib undan shuni anglashimiz kerakki, yosh avlodni har tamonlama barkamol qilib milliy ruhda tarbiyalashda ya'ni xalq og'zaki ijodidagi tarbiyalashning namuna misolini ko'rishimiz mumkin. Bunda ota-ona va yoshi kattalarning har bir ishida go'zallik va did namoyon bo'lib yoshlar uchun namuna bo'lishi lozim. Shuningdek Forobiy "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", — degan so'zlarni bayon etgan bo'lib, bunda milliy tarbiyamizda mavjud bo'lgan pand nasixat qilish, yaxshi xulqlarni egallashida ma'lum bir kishilarning pandu nasixatlari muhimligini anglashimiz mumkindir. Darhaqiqat, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala va munosabatda bo'ladi hamda o'sha jamiyatdagi insonlarning axloqi, tarbiyasi ko'zgusida yashaydi, xuddi shu jarayonda ijtimoiylashayotgan yosh avlodga namuna bo'lish lozim. Chunki yoshlarimiz kattalardan o'rnak oladi hamda shu tarzda hayotga moslashib unga ko'nikib boradi. Jamiyatda xushmuomala, tarbiyali, aqlli, tashabbuskor, faol insonlarni hamma yaxshi ko'radi shunday ekan bolalarimizda shu kabi ijobiy fazilatlar shakllanishida yetarlicha pand nasihatlar qilishimiz juda muhimdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) bobomiz qoldirgan merosi dunyo xalqlari taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Beruniy o'zining "Hindiston" asarida oila va nikoh munosabatlarini yoritgan. Mutafakkir oila va nikoh munosabatlarining nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilgan ekan, oilaning mustahkam va tinch-totuv bo'lishi, er-xotinning ahilligi, shirinso'zligi, bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatiga bog'liq, degan fikrni ilgari suradi. Beruniy turmush qurish otonasida turgan qizlarga shunday deydi: "Ey, qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'li, u osmon bo'ladi. Sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oliyanob bo'ladi. Osmon shifoli yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehr-shafqati bilan seni hushnud etadi... Ering sendan shirin va yumshoq so'zlar eshitsin. Yaramaydigan yoki eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va olib berishga qudrati bo'lmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang, oradagi totuvlik yo'qoladi, turli xil janjallar paydo bo'ladi. Qizim, rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilishni man qilaman. Chunki bu ezmalik nafratni uyg'otadi. Yaxshisi, u bilan xushmuomala, shirinso'zli bo'lgin, bu

ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangan. O'zingga xushbo'y narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin." Beruniyning qarashlaridagi tarbiya, oila, hamkorlik, o'zaro munosabatlarda xushmuomalalik bugungi kunda aynan milliy qadriyatlarimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasida, ularni hayotga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi. Oilada har qanday sharoitda ham bola tarbiyasi ota-ona vazifasi ekanligi, ularni bir-birlariga mehribon qilib tarbiyalash zarur, degan fikrni ilgari suradi. Ibn Sino fikriga ko'ra, oiladagi to'g'ri tarbiya oila baxtining asosidir. Shuningdek, oilada otaning o'rni, uning qattiqqo'l bo'lishi bola tarbiyasi uchun muhimligini e'tirof etadi. Ibn Sino "Tadbiri manzil" kitobining "Ayollarning yaxshi sifatleri" bo'limida: "Onalar oilada bosiq, dono, halol va kamtar bo'lishlari, hamda bola tarbiyasida otaga eng yaqin ko'makdosh bo'la olishlari oila mustahkamligini saqlashda yordam beradi", – deydi. Ibn Sino axloqqa bag'ishlangan risolasida "Har bir insonda qadriyatga aylanishi lozim bo'lgan tarbiya iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr-toqat, muloyimlik, do'stlik, sirni saqlay bilish, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, farosatlik, kamtarlik, adolatlik kabi axloqiy fazilatlar" deydi. Ushbu fikrlaridan bugungi kunda yoshlarimizni xalq og'zaki ijodi va milliy tarbiya asosida ma'naviy barkamolligini ta'minlashda unumli foydalanish o'rinlidir.

Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810- 872) 10 yoshidan hadislarni chuqur o'rganib, 16 yoshida Haj safarini o'tagan va Makkada 4 yil yashagan. Keyinchalik arab mamlakatlarida safarda bo'lib, 600 ming hadis to'plagan va ulardan 100 mingini tanlab, ularning haqiqiy (sahih) ekanligini isbotlagan. Shuningdek, 200 ming g'ayri sahih hadislarni yoddan bilgan. Mutafakkir o'z Vataniga qaytgach, "Al-jome' as-sahih" nomli 4 jildli hadislar to'plamini tuzgan. Bu to'plamga 7275 ta ishonchli hadislar kiritilgan. Bu kitob bir necha marta qayta ko'chirilgan bo'lib, u arab mamlakatlarida ham mashhurdir. Buxoriyning avlodlarga qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosi, yozgan asarlarning soni – 20 dan ortiq. Jumladan, "Al-adab al-Mufrat", "At-tarix as-sag'ir", "At-tarix al-avsat", "At-tarix al-kabir", "Kitab al-ilal", "Birrul-volidayn", "Asmo uz-sahoba", "Kitab al-kuna" shular jumlasidandir. Allomaning muhim asari "Al-jome' as-saxih"dir. Bu asar "Saxihi al-Buxoriy" nomi bilan mashhur bo'lib, unga ishonchli, aniq hadislar kiritilgan. Imom al-Buxoriyning asarlari ota-onaga hurmat, qarindoshlarga nisbatan oqibatli bo'lish, qo'shnilarga ozor bermaslik, qo'shni haqqini ado etish, fitnadan, g'iybat va kibrdan uzoq bo'lish, adolat bilan ish tutish kabi insonga xos fazilatlar hadislar orqali yoritilganki, zero ularni haq deb o'zida mujassam etgan inson hyech qachon xor bo'lmaydi, deb umid qilamiz.

Alisher Navoiy – shoir, mutafakkir, olim, davlat arbobi. U nafaqat buyuk shoir, o'zbek adabiyotining asoschisi, ilk bora "Xamsa" asarini turkiy tilda yaratgan buyuk mutafakkir ham edi. Uning bir qancha nasriy asarlari o'zbek tiliga bag'ishlangan. O'zining "Majolis un-nafois", "Muhokamatul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon" kabilar shular jumlasidandir. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilini fors-tojik tili bilan qiyoslab uning boyliklarini, o'zbek tilining imkoniyatlari nihoyatda cheksiz ekanligini isbotlab bergan. Holbuki, Navoiygacha o'tgan bir qancha shoirlar bu tilda asarlar yaratib bo'lmaydi, uning imkoniyatlari cheklangan, degan qarashlarni ilgari surishgan. Zahiriddin Muhammad Boburning ta'biricha: "Alisher Navoiy nazariy g'oyalarni ilgari suribgina qolmay, balki bu tilda juda ko'p va xo'p asarlar yaratgan. Alisher Navoiy asarlarida shunchalik ko'p so'zlar ishlatilganki, to'la bo'lmagan hisob-kitoblarga ko'ra, u o'z ijodida 26 mingdan ortiq so'z ishlatganligi aniqlangan. Mutafakkir o'z asarlarida o'zbeklarga xos bo'lgan ular uchun qadriyatga aylangan va urf-odatlarida yaqqol namayon bo'ladigan ayollar, ota-ona va farzand munosabatlari bir qator to'rtliklarida ta'rif berganlar. Navoiy ijodida ayollar, ayniqsa, onalarga bo'lgan chuqur hurmat va ehtirom doimo sezilib turadi. Jumladan, "Iffatli, shirinso'z, xushmuomala, aqlli va go'zal xulq ayollar hamisha qut-baraka, shirin hayot manbaidirlar. Sen o'zingga yor, mahbubu tilasang, uning to'g'riso'zligi, haqgo'yligi, yurish-turishiga boq" – deydi. Albatta, shoir ayollarni bebaho so'zlar bilan ko'klarga ko'tarar ekan, erkaklarni ayol tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" romanida insoniylik, yaxshilik, adolat, millatlararo va dinlararo totuvlik kabi ezgu g'oyalarning ilgari surilishini ko'rishimiz mumkin. Inson qalbining quvonch-qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon

adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz. Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar va uning sharqona fazilatlari sanab o'tiladi. Bular qatoriga ulug' mutafakkir: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish, yaxshi, muloyim bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyoat chekishdan qo'rqmaslik kabilarni kiritadi. Bular esa bizning asl qadriyatimizdir, milliylikimiz, bularning bari urf-odatimizda mujassam bo'lishi lozimdir. Yoshlarimiz va o'zimiz shu fazilatlarga ega bo'lib, bunday xususiyatlardan yiroqlashmasligimiz zarur. Negaki bular haqiqiy hayot sabog'i va inson go'zalligi emasmi. Mutafakkirning "Hayrat ul-abror" dostonlarida ota-onaga hurmat, iymon, adolat, saxiylik, to'g'rilik, omonatga xiyonat qilmaslik, sabr-qanoat, vafo, shukur, ayniqsa, rostgo'ylikka da'vat yetakchilik qiladi. Mana shunday fazilatlarga ega bo'lgan odamning oila va atrofdagilar oldida obro'yi va hurmati oshishi ta'kidlanadi. Aksincha, ota-onasini ranjitadigan, va'dasida turmaydigan, birovning omonatiga xiyonat qiladigan, do'stga vafosiz, yolg'on so'zlaydiganlarning uyatga qolishi yoki biror falokatga uchrashi aytiladi. Alisher Navoiy: "Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o'zi ulug' mukofotdir",– deydi. Tarbiyada "yaxshilik" axloqiy tamoyillarning eng asosiysi hisoblanadi. Albatta, yaxshilik bor joyda unga qarshi yomonlik ham bor. Inson o'z hayoti davomida kimgadir yaxshilik va yomonlik qilsa, kimdandir yaxshilik va yomonlik ko'radi. Bu hayot qonuni bo'lib inson hayotining asosini "yaxshilik" tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarimizda milliy va umuminsoniy qadriyatarni singdirish va ularda milliy fazilatlarimizni singdirishning ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan yurtimiz yoshlarida milliy tarbiyamizga yanada alohida e'tibor qaratish lozimligini taqazo etmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki milliy tiklanishdan milliy yuksalib borayotgan davlatimizda bu borada keng ko'lamli amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi ishlar ilmiy tadqiqotlarda ham o'rganilib, amaliy va nazariy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Darhaqiqat mutafakkirlarimiz tamonidan qoldirilgan meroslar shaxs kamolotida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan mutafakkirlarimizning merosini o'rganish va undan o'rinli foydalanish, milliy tarbiya samaradorligini oshirishda muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016. 8-dekabr.
2. Ibrohimov A. "Bizkim, o'zbeklar", Sharq nashriyoti. T.: 2011 142-bet.
3. Suvonqulov I. Ma'naviyat ildizlar. Qo'llanma – Samarqand. 2000. 72-bet.
4. Shoumarov G'., Akramov F., Umarov B. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. T.: 2015. 20-bet.
5. Alisher Navoiy. "Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar". "Sanostandart" T.: 2016. 82-bet.
6. Oybek. "Navoiy". Sharq nashriyoti. T.:1995. 36-bet.
7. Xolov O.Ch. Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish. Dissertatsiya. Termiz. 2022.